

**“TASDIQLAYMAN”**

**“Adolat” milliy huquqiy  
axborot markazi direktorining  
birinchi o‘rinbosari**



**O.Fayzullayev**

2022-yil 28 mart

**TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ**  
**(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot  
portaliga e‘lon joylashtirish to‘g‘risida)**

“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami”ni chop etish yuzasidan e‘lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot  
portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari  
va hujjatlari bo‘yicha e‘lon matni**

**Tanlovga qo‘yilayotgan xizmat turi:**

“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami”ni chop etish vazifasini bajarish.

**Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:**

1. Chop etish ishlarini “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;
2. Tegishli litsenziya va guvohnomaga ega bo‘lgan va ushbu sohada kamida 3 yillik tajriba hamda o‘z texnik bazasiga ega bo‘lish;
3. G‘olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan nashrning elektron maketi berilgach 5 kun muddat ichida to‘liq chop etib berish va ish yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan “Buyurtmachi”ga hisob-faktura topshirish;
4. Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlarga yo‘l qo‘ymaslik xususida ariza taqdim etish;
5. Tanlovda g‘olib chiqqan tashkilot (korxonada) bilan Markaz o‘rtasida rasmiylashtirilgan shartnomada ko‘zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;
6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 7 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, (ariza, kafillik xati, tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma‘lumot, uning moliyaviy holati haqida ma‘lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval).

Ko'rsatiladigan xizmatning umumiy tavsifi:

| № | adadi       | hajmi   | formati        | muqova        | Ichki sahifa                         | Pripessovka | 1 dona nashrni chop etish narxi |
|---|-------------|---------|----------------|---------------|--------------------------------------|-------------|---------------------------------|
| 1 | 5000 nus'ha | 232 bet | 70x100<br>1/16 | Qattiq rangli | 80 gr.,<br>rangsiz<br>(1-bet rangli) | Termokley   | 29 000 so'm                     |

Buyurtmachi nomi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Buyurtmachi mansabdor shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor F. Tojiyev Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy. STIR: 201 453 166

Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: tomonidan nashrning elektron maketi berilgach 3 kun.

Tanlov o'tkazish manzili: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Boshlanish muddati: 28.03.2022-yil

Tugallanish muddati: 01.04.2022-yil

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati: 2022-yil 1-aprel.

Takliflarni topshirish manzili: Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy. Telefon: (71) 233-25-65.

**Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:**

Tannarx, muddat, ko'rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e'lon shartlariga muvofiq bajarish muddati.


- Komissiya tomonidan xizmat ko'rsatish sifatli va o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq boshqa holatlar ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;

- Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlov g'olibi aniqlanadi.

**Marketing, reklama**  
va obuna bo'limi bosh mutaxassis

**Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i**

**Mehnatni muxofaza qilish**  
va xo'jalik ishlari mudiri

 A.O'rinov  
 M. Yerdashev  
 A. Tursunov  
28.03.2022-yil